

**Autsorsing shartlari asosida xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha
ShARTNOMA № 3**

Kattaqo'rg'on tumani

2022 yil «15» fevral

Kattaqo'rg'on tuman tibbiyot birlashmasi nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi **M.A.Asrarova** (keyingi o'rinlarda Buyurtmachi deb ataladi) bir tomondan va **Axmadjon extiyot qisimlar MChJ** nomidan Ustav (ishonchnoma) asosida faoliyat yurituvchi direktor **R Axadov** (keyingi o'rinlarda Autsorsers deb ataladi), ikkinchi tomondan keyinchalik Tomonlar deb ataladi, ushbu Shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar.

I. Shartnoma predmeti

1.1. Autsorsers Buyurtmachining buyurtmasi bo'yicha mazkur Shartnomaning 1.2-bandida ko'rsatib o'tilgan xizmatlarni ko'rsatish, Buyurtmachi esa ushbu xizmatlar uchun pul to'lash majburiyatini oladi.

1.2. Autsorsers mazkur shartnomaning 1.3-bandida ko'rsatilgan muddatdan boshlab, u tugaguniga qadar har kuni Buyurtmachini sifatli oziq ovqat bilan taminlash hamda O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari bilan belgilangan sanitariya-gigiena normalari va qoidalariga rioya etgan holda, Buyurtmachi bilan kelishilgan buyurtmalarni bajarish jadvaliga muvofiq ta'minlash majburiyatini, keyingi o'rinlarda Xizmatlar deb ataladi, o'z zimmasiga oladi.

1.3. Xizmat ko'rsatish muddati:

2022 yil «15» fevraldan.

2022 yil «31» dekabrgacha.

1.4. Tomonlar bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi va Autsorsers tomonidan amalda ko'rsatilgan Xizmatlar uchun belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hisob-faktura imzolanib Buyurtmachi Autsorserning mazkur Shartnomada ko'rsatilgan bank hisob-raqamiga pul mablag'lari o'tkazgandan so'ng Xizmatlar ko'rsatilgan deb hisoblanadi.

II. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

2.1. Autsorsers quyidagi huquqlarga ega:

2.1.1. Ijaraga olingan mol-mulkdan foydalanish;

2.1.2. Ijaraga olingan bino va inshootlarning ichki va tashqi qismida texnik jihatdan jihozlash va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish;

2.1.3. Xizmatlar tannarxining o'zgarishi munosabati bilan shartnomaga o'zgartirish kiritish taklifi bilan chiqish;

2.1.4. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'z vaqtida to'lovlar amalga oshirilishini talab qilish;

2.1.5. Ko'rsatilgan xizmatlar natijasida foyda olish;

2.1.6. Buyurtmachidan shartnoma shartlarining bajarilishini talab qilish;

2.1.7. Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlar.

2.2. Autsorsers quyidagilarga majbur:

2.2.1. Ijaraga olingan bino va inshootlar, jihozlardan maqsadli hamda oqilona foydalanishi, saqlashi, nosoz holga kelganda ularni o'z hisobidan ta'mirlashi, shuningdek, kommunal xarajatlarini qoplashi;

2.2.2. Autsorsing xizmatini ko'rsatishda texnika, yong'in, mehnat muhofazasi hamda sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga qat'iy rioya etishi;

2.2.3. Tovar (ishlar, xizmatlar)ning sifatli ishlab chiqarilishini va buyurtmachiga yetkazilishini ta'minlashi;

2.2.4. Maxfiylik tartibiga qat'iy rioya qilishi;

2.2.5. Shartnomani bekor qilish haqida buyurtmachini ikki oy oldin yozma ravishda ogohlantirish, ushbu muddat tugaguniga qadar esa buyurtmachining tegishli xizmatlarini uzluksiz tashkil etishni ta'minlashi;

- 2.2.6. Xizmatlarni sifatli, mazkur Shartnomaning 1.3-bandida ko'rsatilgan muddatda va to'liq hajmda ko'rsatishi;
- 2.2.7. Xizmatlar ko'rsatish jarayonida Outsorser mazkur shartnoma shartlariga amal qilmasdan, xizmatlar sifatining yomonlashuviga olib kelgan barcha kamchiliklarni Buyurtmachining talabi bo'yicha bir kun davomida bepul to'g'rilashi;
- 2.2.8. Xizmatlarning sifatsizligi, xizmatlarni bajarish uchun vaqtincha foydalanishga beriladigan ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) xonalari holati, shuningdek, tegishli inventarlarning sanitariya qoidalariga javob bermasligi aniqlanganda, Outsorser zudlik bilan Buyurtmachining aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha qonuniy talabini bajarishi;
- 2.2.9. Malakali, tajribali, qo'yilgan vazifani (xizmatni, ishni) amalga oshirish huquqini beruvchi tegishli hujjatlari mavjud bo'lgan, shuningdek, belgilangan tartibda va muddatda tibbiy tekshiruvdan (ko'rikdan) o'tgan xodimlarga (talab etilgan hollarda) xizmatlarni bajarish jarayoniga ruxsat etishi;
- 2.2.10. Xodimlar zimmasiga Buyurtmachining hududida odob-axloq qoidalariga, shuningdek, ichki tartibga rioya qilish majburiyatini yuklashi;
- 2.2.11. Xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni shaxsan bajarishi, mazkur Shartnoma shartlarini bajarishni uchinchi shaxsga topshirmasligi;
- 2.2.12. Mazkur shartnoma shartlarini bajarish doirasida Buyurtmachi tomonidan vaqtincha foydalanishga topshirilgan uskunalar, jihozlar, idishlar, asboblarni, mebellar, inventarlar va boshqalar moddiy vositalarni soz holda saqlashi, ta'mirlashi, shuningdek, binolarni ta'mirlashi;
- 2.2.13. Tomonlar imzolaydigan tegishli qabul qilish-topshirish dalolatnomasini rasmiylashtirgan holda, Buyurtmachidan binolarni (xonalarni), uskunalarni, jihozlarni, asboblarni, mebellarni, inventarlar va boshqalar moddiy vositalarni qabul qilib olishi;
- 2.2.14. Mazkur shartnomani bekor qilish haqida Buyurtmachini ikki oy oldin yozma ravishda ogohlantirishi, ushbu muddat tugaguniga qadar esa Buyurtmachiga xizmatlarni uzluksiz ko'rsatilishini ta'minlashi;
- 2.2.15. Mazkur shartnomaga asosan Xizmatlarni ko'rsatish ishlariga jalb etilgan xodimlarni o'qitishni (malakasini oshirishni) amalga oshirishi (talab etilgan hollarda);
- 2.2.16. Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar.
- 2.3. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:
- 2.3.1. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) sifatli ishlab chiqarilishi (bajarilishi, ko'rsatilishi)ni talab qilish;
- 2.3.2. Outsorserning faoliyatiga aralashmagan holda, shartnoma shartlarining bajarilishini nazorat qilish;
- 2.3.3. Shartnomani bekor qilish to'g'risida 10 kun oldin Outsorserni yozma ravishda ogohlantirish, bunda ko'rsatilgan xizmatlarning qiymatini belgilangan tartibda to'lash;
- 2.3.4. Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlar.
- 2.4. Buyurtmachi quyidagilarga majbur:
- 2.4.1. Bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi va rasmiylashtirilgan hisob-faktura asosida ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi narxlar bo'yicha bir oyda kamida bir marta Xizmatlar haqini to'lashi;
- 2.4.2. Outsorserga mazkur Shartnoma shartlarini bajarish doirasida binolarni (xonalarni), uskunalarni, jihozlarni, asboblarni, mebellarni, inventarlar va boshqa moddiy vositalarni vaqtincha foydalanishga berishi;
- 2.4.3. Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar.

III. Xizmatlar narxi va o'zaro hisob-kitoblar tartibi

- 3.1. Mazkur shartnomaning ilovasiga muvofiq xizmatlar narxi **21844800 (Yigirma bir million sakkiz yuz qirq to'rt ming sakkiz yuz)** so'mni tashkil etadi.

3.2. Outsorser tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'zaro hisob-kitoblar bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi va rasmiylashtirilgan hisob-faktura asosida ko'rsatilgan xizmatlarning amaldagi qiymati bo'yicha bir oyda kamida bir marta amalga oshiriladi.

3.3. Ko'rsatiladigan xizmatlarning amaldagi soni haqidagi ma'lumotlar va xizmatlarning amaldagi narxi asosida Buyurtmachi kundalik buyurtmaga muvofiq Outsorser bilan birgalikda har o'n kunda, to'lanishi lozim bo'lgan summasi ko'rsatilgan, Outsorser va Buyurtmachi tomonidan imzolanadigan bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi tuziladi va hisob-faktura rasmiylashtiradi.

3.4. Buyurtmachi tomonidan amalda ko'rsatilgan xizmatlar narxi belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bajarilgan ishlar dalolatnomasi va hisob-faktura olingan vaqtdan boshlab, 10 bank kuni davomida Shartnomada belgilangan summadan ortiq bo'lmagan miqdorda to'lanadi.

3.5. Mazkur Shartnomaning ilovasida ko'rsatilgan, shartnomaning prognoz summasini hisoblash uchun xizmatlarning narxlari tomonlardan birining tashabbusi bilan qayta ko'rib chiqiladi.

IV. Tomonlarning majburiyatlari

4.1. Outsorser shartnoma majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmagan hollarda, Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatning bajarilmagan qismining 0,5 foiz miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi ko'rsatilmagan xizmatlar oylik narxining 50 foizidan oshmasligi kerak.

4.2. Penya (jarima) to'lash Tomonlarning zimmasidagi majburiyatlarini bajarishdan yoki buzilishlarni bartaraf qilishdan ozod etmaydi.

4.3. Mazkur Shartnoma shartlarining bajarilmasligi yoki tegishli darajada bajarilmasligi uchun Tomonlar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi talablarida, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa normativ-huquqiy hujjatlarida nazarda tutilgan javobgar bo'ladilar.

4.4. Buyurtmachiga har chorakda bir marotaba ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati, ijaraga berilgan bino va inshootlarning holatini monitoring o'tkazishga (outsorserning moliyaviy faoliyatiga aralashmagan holda) sharoitlar yaratish.

4.5. Tomonlarning Mazkur Shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik choralari O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan fuqarolik qonunchiligi normalariga muvofiq qo'llaniladi.

V. Munozarali vaziyatlarni hal etish tartibi

5.1. Mazkur Shartnomani bajarishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolar va kelishmovchiliklar imkon qadar Tomonlar o'rtasida muzokara o'tkazish yo'li bilan hal etiladi.

5.2. Nizolar va kelishmovchiliklarni Tomonlar o'rtasida muzokara o'tkazish yo'li bilan hal etib bo'lmaydigan holatlarda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan kelishmovchiliklarni suddan oldin bartaraf qilish tartib-taomili amalga oshirilgandan so'ng ular O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda sudga ko'rib chiqish uchun beriladi.

VI. Fors-major holatlar

6.1. Tomonlar majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun, agar bunday holatlar yengib bo'lmay kuch, ya'ni tabiiy ofatlar, tabiiy va texnogen tushadigan favqulodda holatlar va alohida davr oqibati hisoblansa va davlatning tegishli organlari tomonidan tasdiqlansa, javobgarlikdan ozod qilinadi. Bunda mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati mutanosib ravishda ushbu hodisalar ro'y bergan muddatga suriladi.

7.3. Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilgan. Ikkala nusxa aynan bir xil bo'lib, bir xil yuridik kuchga ega. Tomonlarning har birida mazkur Shartnomaning bir nusxasi bo'ladi.

VIII. Shartnomaning amal qilish muddati

8.1. Ushbu Shartnoma imzolangan paytdan kuchga kiradi va bir kalendar yili davomida yoki muddatidan oldin bekor qilinguniga qadar amal qiladi.

IX. Tomonlarning manzili va bank rekvizitlari

«Autorser»

Tashkilot nomi AXMADJON EHTIYOT
QISMLAR MCHJ
Manzil: Kattaqo'rg'on tuman Payshanba shah
Tel.:(90) 284 64 90
X/R 20208000905169903001
Bank nomi: ATB "Xalk banki " Payshanba filiali
STIR: 307081:95 raxbar INN434 908 248
MFO: 00737

Raxbar:

R Akadov

(imzo)

M.O'.



«Buyurtmachi»

Tashkilot nomi: Kattaqo'rg'on tuman tibbiyot birlashmasi
Manzil: Kattaqo'rg'on tuman Kadan MFY
Tel.: (66) 414-31-32 STIR:200748717
OKONX: 91511 MFO: 00014
Buyurtmachining G'azna shaxsiy hisobvarag'i:
ShXR 100022860182157073102054001
G'aznachilik bo'linmasi nomi:
Kattaqo'rg'on tuman bo'yicha g'aznachilik
bo'linmasi 23402000300100001010
Bank nomi: Markaziy bank Toshkent shahar B.B
G'aznachilik bo'linmasi INN raqami: 201122919

Raxbar:

M. Asrarova

(imzo)

M.O'.



СПЕЦИФИКАЦИЯ

| № | Номи | ул.бир | Сони | Нархи | Суммаси |
|---|-------------------|--------|------|-------|----------|
| 1 | Эрталабки нонушта | услуг | 1332 | 1200 | 1598400 |
| 2 | Тушлик | услуг | 1332 | 7100 | 9457200 |
| 3 | Полдник | услуг | 1332 | 1400 | 1864800 |
| 4 | Кечки овкат | услуг | 1332 | 4500 | 5994000 |
| 5 | Бошка харажатлар | сум | 1 | 2200 | 2930400 |
| | Жами: | | | 16400 | 21844800 |

Сумма сўз билан:(йигирма бир миллион саккиз юз кирк гурт минг саккиз юз)сум тийин ККС сиз

Бажарувчи:

ООО<<Ахмаджон эhtiёт кисимлар>>

Адрес:Каттакургон туман Пайшанба шах

Тел:(90)2846490

Х/Р:20208000905169903001

Буюртмачи:

Каттакургон туман тиббиёт бирлашмаси

Кадан кургони

Тел:414-31-32

Х/Р:100022860182157073102054001


Банк номи:АТБ "Халк банки"Пайшанба филиали <<Агробэнк>>Тошкент вилояти филиали

ИНН:307081195 МФО:00737: рахбар

ИНН:434908243

Директор:  Р.Ахмедов

ИНН:200748717 МФО:00014: ОКОНХ:91511

Директор:  М.А.Асарова





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
SAMARQAND VILOYATI ADLIYA BOSHQARMASI
KATTAQO'RG'ON TUMAN YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI

141408, Kattaqo'rg'on tumani, Kadan mahallasi, Mustaqillik ko'chasi

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA
№ KP58038226**

1. Loyihaning turi.
Shartnoma.

2. Loyihaning nomi.
Kattaqo'rg'on tuman tibbiyot birlashmasi va "Axmadjon ehtiyot qisimlari"
MChJ o'rtasidagi №3-sonli Outsorsing shartlari asosida xizmatlarni ko'rsatish
to'g'risidagi shartnoma.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot.
Shartnoma loyihasi, Kattaqo'rg'on tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan
ishlab chiqilgan va markazga huquqiy xulosa berish uchun 2022-yil 15-fevral kuni
kiritilgan.

Loyiha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10.03.2020
yildagi 16-sonli "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tuzilmasidagi
tashkilotlarda outsorsing xizmatlari ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizomni
tasdiqlash haqida"gi qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga
muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



A.Nimatilayeva

2022-yil 15-fevral



Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida
GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari vaqona davlat reyestriga

"AXMADJON EHTIYOT QISMLAR" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning - tadbirkorlik subyektining tashkiliy tashkiloti ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida)

"AXMADJON EHTIYOT QISMLAR" MChJ

(Yuridik shaxsning o'zgartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

30.01.2020

807926

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (va yil) kuni, yil)

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR)

307081195

Tashkiliy-huquqiy
shakli:

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi:

Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on tumani, M. Ulug'bek MFY A.Navoiy
YO'LI

Guvohnoma:

Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on tumani, DAVLAT
XIZMATLARI MARKAZI

tomonidan
benigan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi)

